



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INSON HUQUQLARI BO'YICHA DAVLAT SIYOSATI

Nigina Qobilova Ulug'bek qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada inson huquqlari tushunchasi O'zbekiston Respublikasida inson huquqlarini to'laqonli ta'minlash maqsadida amalga oshirilayotgan davlat siyosati va uning amaldagi natijalari sharhlanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar bilan olib boryotgan hamkorligining yanada mustahkamlanishi uchun ishlab chiqilgan chora tadbirlari o'rganiladi va takliflar beriladi. Xalqaro hujjatlarning milliy qonunchiligidagi implementatsiya jarayonlari va ularning ijobiliy natijalarini muhokama qilingan. Mazkur tadqiqot ishi doirasida qiyosiy, statistik va kontent metodlaridan foydalilanilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro huquqiy normalar, inson huquqlari, davlat siyosati, implementatsiya, xalqaro tashkilot, milliy qonunchilik.

Inson huquqlari – insonning davlat bilan munosabatidagi huquqiy maqomini, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalardagi imkoniyatlari hamda da'volarini tavsiylovchi tushuncha. Inson huquqlarini erkin va samarali tarzda amalga oshirish fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biridir. Inson huquqlarini mutlaq va nisbiy Inson huquqlariga bo'lish qabul qilingan. Yashash huquqi, qiyonklarga, zo'ravonlikka, inson sha'nini yerga uradigan boshqa xil muomalaga yoki jazoga duchor etilmaslik huquqi, shaxsiy hayotning daxlsizligi huquqi, shaxsiy va oilaviy sir saqlash huquqi, o'z sha'ni hamda yaxshi nomini himoya etish huquqi, vijdon erkinligi va dinga e'tiqod qilish huquqi, shuningdek, sud tomonidan himoya qilinish va odil sudlov huquqi hamda shular bilan bog'liq eng muhim protsessual huquqlar mutlaq inson huquqlari sirasiga kiradi. Qolgan hamma inson huquqlari nisbiy bo'lib, favqulodda yoki harbiy holat tartibi joriy qilingan vaziyatda cheklab yoki to'xtatib qo'yilishi mumkin. Demokratik davlatda mutlaq Inson huquqlarini har qanday vaziyatda ham cheklashga yoki vaqtincha to'xtatishga (bekor qilishga) yo'l qo'yilmaydi.

Mustaqillik yillarda O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarining ustunligidan kelib chiqadigan, xalqaro miqyosda qabul qilingan yangi yuridik tamoyil va talablarga asoslangan keng hukuqiy muhit vujudga keltirildi. Totalitar tuzumning tazyiq va zo'ravonligidan huquqiy me'yorlar sari keskin burilish yasaldi. Respublika qonunlarini inson huquqlari sohasidagi xalqaro me'yorlar va andozalarga muvofiklashtirish, mazkur sohada Milliy harakat dasturini ishlab chiqish, inson huquqlarini himoya qiladigan muassasalarning yaxlit tizimini barpo etish, Inson huquqlariga oid xalqaro shartnomalar va hujjatlarga qo'shilishda davom etib, bu hujjatlar bo'yicha majburiyatlarni bajarishning, barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar shu hujjatlar talablariga so'zsiz riosa qilishining mexanizmi yaratildi.



Konstitutsiyamiz Muqaddimasida davlat va jamiyat taraqqiyotining huquqiy mafkurasi, xalqimiz Yangi O‘zbekistonni buniyod etish yo‘lida tayanadigan konstitutsiyaviy qadriyatlar va tamoyillar aniq belgilab berilgan. Bugungi kunda inson qadr-qimmati, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash g‘oyasi davlatimizning butun ichki va tashqi siyosatining tamal toshiga, yangi O‘zbekistonda demokratik islohotlarning eng muhim harakatlantiruvchi kuchiga hamda ushbu ezgu sa’y-harakatlarni o‘zaro bog‘lab turuvchi muhim omilga aylandi. Bu sa’y-harakatlarni rivojlantirish yo‘lida O‘zbekiston Konstitutsiyasining “inson – jamiyat – davlat” tamoyilini hayotga tatbiq etish va inson huquqlariga taaluqli normalari 3,5 barobar oshirildi. Agar dunyo mamlakatlari Konstitutsiyalarida insonning 110 dan ortiq huquqi qayd etilganini hisobga olsak, hozirgi kunda shundan 90 tasi mamlakatimiz yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida mavjud bo‘lib, ulardan 40 tasi yangi konstitutsiyaviy huquqlardir. Ya’ni, O‘zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi – tom ma’noda o‘zbekona “Inson huquqlari to‘g‘risidagi bill”ga aylandi, deyishga barcha asoslar bor. Buning isboti o‘laroq Konstitutsiyamizning ikkinchi bo‘limida inson huquqlari, erkinliklari va burchlariga batafsil yoritilgan bo‘lib, V – XI boblarni o‘z ichiga oladi.

Bundan tashqari, davlat xotin-qizlar va erkaklarga shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalga oshirish chog‘ida teng huquqlilikni kafolatlaydi.

Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, saylov jarayonida teng ishtirok etishni, sog‘liqni saqlash, ta’lim, fan, madaniyat, mehnat va ijtimoiy himoya sohalarida, shuningdek davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquq hamda imkoniyatlar ta’minlanishini kafolatlaydi.

Xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasida haqiqiy tenglikka erishish, jamiyat hayotining barcha sohalarida ularning ishtirokini kengaytirish, jins bo‘yicha bevosita va bilvosita kamsitishni bartaraf etish hamda ularning oldini olish maqsadida davlat tomonidan gender siyosati amalga oshirilishini ta’minlashga doir vaqtinchalik maxsus choralar ko‘riladi.

Bugungi Konstitutsiyamizning yangi normalarida asosiy e’tibor inson, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilganini ishonch bilan ta’kidlash mumkin. Yangi tahrirdagi Asosiy qonunning qabul qilinishi bilan bu borada yanada mustahkam konstitutsiyaviy-huquqiy asos yaratildi. Binobarin, Yangi O‘zbekiston o‘zining ushbu sohalardagi xalqaro majburiyatlariga qat’iy sodiqligini yana bir bor namoyon etdi.

Konstitutsiyamizda Yevropa, Osiyo, Sharq va Amerika mintaqalarida joylashgan dunyo davlatlarining ijobjiy konstitutsiyaviy tajribasi o‘z aksini topgan. Asosiy qonunimiz huquqshunos olimlar, siyosatshunoslar, ko‘plab xalqaro tashkilotlar mutaxassislari tomonidan sinchiklab o‘rganilgan bo‘lib, unga inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq normalari qo‘srimcha ravishda uyg‘unlashtirilgandir. Xalqaro tashkilotlar vakillari va ekspertlar xolis va to‘g‘ri ta’kidlaganlaridek, O‘zbekiston Konstitutsiyasining yangi tahrirda qabul qilinishi “Inson sha’ni va qadr-qimmati uchun” tamoyili asosida xalq farovonligini yanada yuksaltirish, inson, fuqarolik jamiyatni va davlatni jadal rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Inson huquqlari umummiy nazariyasi darslik: - T. 2012. – 304 b
2. Saidov A. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq: darslik 2006 – 2006
3. Xakimov R.T Birlashgan Millatlar Tashkiloti va O'zbekiston. T. 2006.
4. Kovalyov A.A. Inson huquqlarini xalqaro himoya qilish: Darslik. - M.: Nizom, 2013 y

INTERNET RESURUSLARI:

1. <http://insonhuquqlari.uz/oz/menu/zbekiston-va-bmtning-ustav-organlari>
2. <https://lex.uz/docs/-501797>
3. <https://uzbekistan.un.org/uz/>
4. <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston>
5. <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>